

SUN'IY INTELLEKT YORDAMIDA BADIY MATNLARNI TARJIMA QILISH JARAYONIDAGI MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMLARI

Maxmudova Nilufar Qutlug'jon qizi

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti Tarjimonlik fakulteti 1-bosqich talabasi

E-mail: qutlugsodiqov@gmail.com

Nosirova Mubina Olimovna

O'zDJTU Umumiy tilshunoslik kafedrasida katta o'qituvchisi

E-mail: m.nosirova@uzswlu.uz

Annotatsiya. Mazkur tadqiqot sun'iy intellekt yordamida badiiy matnlarni tarjima qilish jarayonida yuzaga keladigan muammolar va ularning yechimlarini tahlil qilishga qaratilgan. Tadqiqotda Corston-Oliver, Li, Wang va Peter Newmark kabi olimlarning yondashuvlari o'rganilib, mashina tarjimasining asosan lingvistik va statistik jihatlariga tayanishi, biroq badiiy matnlarning stilistik, madaniy va emotsional xususiyatlarini to'liq aks ettira olmasligi aniqlangan. Shuningdek, badiiy tarjimada yuzaga keladigan asosiy muammolar — leksik noaniqliklar, madaniy tafovutlar va ritorik vositalarning yo'qolishi — tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, badiiy tarjima, mashina tarjimasida, stilistik muammolar, madaniy moslashuv, post-editing, lingvistik tahlil.

Аннотация. Данное исследование направлено на анализ проблем, возникающих в процессе перевода художественных текстов с использованием искусственного интеллекта, а также на поиск возможных путей их решения. В работе рассматриваются подходы таких ученых, как Corston-Oliver, Li, Wang и Peter Newmark. Установлено, что машинный перевод в основном опирается на лингвистические и статистические аспекты, однако не способен в полной мере передать стилистические, культурные и эмоциональные особенности художественных текстов. Кроме того, анализируются основные проблемы художественного перевода, включая лексическую неоднозначность, культурные различия и утрату риторических средств.

Ключевые слова: искусственный интеллект, художественный перевод, машинный перевод, стилистические проблемы, культурная адаптация, постредактирование, лингвистический анализ.

Abstract. This study is aimed at analyzing the challenges that arise in the process of translating literary texts using artificial intelligence, as well as identifying possible solutions to these issues. The research examines the approaches of scholars such as Corston-Oliver, Li, Wang, and Peter Newmark. It has been found that machine translation primarily relies on linguistic and statistical aspects; however, it fails to fully convey the stylistic, cultural, and emotional features of literary texts. Furthermore, the main problems of literary translation are analyzed, including lexical ambiguity, cultural differences, and the loss of rhetorical devices.

Keyword: artificial intelligence, literary translation, machine translation, stylistic issues, cultural adaptation, post-editing, linguistic analysis.

Sun'iy intellekt yordamida badiiy matnlarni tarjima qilishda uslub, obrazlilik va madaniy ma'nolarni to'liq yetkazish muammolari mavjud bo'lgani sababli, bu muammolarni aniqlash va samarali yechimlar ishlab chiqish bugungi kunda dolzarb

masalalaridan biri hisoblanadi. Sun'iy intellekt yordamida badiiy matnlarni tarjima qilishda uslub, obrazlilik va madaniy ma'nolarni to'liq yetkazish muammolari mavjud bo'lgani sababli, bu muammolarni aniqlash va samarali yechimlar ishlab chiqish bugungi kunda dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Simon Corston-Oliver va hammualliflar ta'kidlashicha, mashina tarjimasining sifatini baholashda asosiy e'tibor uning tabiiyligi (well-formedness)ga qaratilishi kerak bo'lib, buning uchun lingvistik xususiyatlar va statistik ko'rsatkichlar asosida mashina va inson tarjimasini farqlash mumkin (Corston-Oliver et al., 2001, p 148–149). Peter Newmark esa tarjimada matnning nafaqat mazmuni, balki uning uslubi va ta'sir kuchi ham saqlanishi zarurligini ta'kidlaydi, ayniqsa badiiy matnlarda bu omil muhim hisoblanadi deb ta'kidlagan. (Newmark, 1988, p 39–40). Izlanishlarga ko'ra, badiiy matnlarni tarjima qilishda esa faqat tabiiylikni aniqlash yetarli emas, balki matnning badiiyliigi, obrazliliigi va muallif uslubini ham sun'iy intellekt orqali to'g'ri yetkazish muhim hisoblanadi.

Tadqiqotning maqsadi sun'iy intellekt yordamida badiiy matnlarni tarjima qilish jarayonida yuzaga keladigan muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish yo'llarini ishlab chiqishdan iborat bo'lib, buning uchun SI tarjima vositalarini tahlil qilish, stilistik va madaniy xatoliklarni aniqlash hamda samarali yechimlar taklif qilish vazifalari amalga oshiriladi. Corston-Oliver va hammualliflar mashina tarjimasini baholashda lingvistik va statistik xususiyatlar asosida inson va mashina tarjimasini farqlash mumkinligini ta'kidlaydi. Ular tarjima sifatini aniqlashda ayniqsa matnning tabiiyligi (fluency) muhim ekanligini ko'rsatadi. Ularning yondashuvida (n-gram va perplexity) kabi statistik modellardan foydalaniladi hamda sintaktik tuzilma, so'z zichligi, gap uzunligi kabi lingvistik belgilar tahlil qilinadi va mashina va inson tarjimasini klassifikatsiya qilish orqali sifati baholanadi. Bu yondashuv asosan texnik va umumiy matnlar uchun samarali hisoblanadi. (Corston-Oliver, S., Gamon, M., & Brockett, C. (2001). Li esa to'g'ridan-to'g'ri badiiy tarjimasiga e'tibor qaratadi. U mashhur onlayn tarjima vositalarini (Google, Bing, Baidu, Youdao) tahlil qilib, ularning badiiy tarjimada quyidagi muammolarini aniqlaydi: leksik darajada xatolar ya'ni so'z tanlashdagi noaniqliklar, madaniy elementlarni noto'g'ri tarjima qilish ritorik vositalarni metafora, o'xshatishlarni yetkazib bera olmaslikni tahlil qiladi xulosa qilishicha: "onlayn tarjima vositalari badiiy tarjimada kutilgan darajada samarali emas" deb ta'kidlaydi. (Li, S., & Li, Y. 2019). Yana bir olim Wang mashnaviy o'rganish asosida adabiy matnlarni tarjima qilishda moslashuvchanlik (adaptability) muhimligini ta'kidlaydi va quyidagilarni ilgari suradi: tarjima asl matnning aniqligi va to'liqligini saqlashi kerak, lingvistik yondashuvlar orqali tarjima sifatini oshirish mumkin va mashina tarjimasi hali inson darajasiga yetmagan degan fikrlarni ilgari surgan. (Wang, X. (2020). Mazkur maqolada sun'iy intellekt yordamida badiiy matnlarni tarjima qilish jarayonida yuzaga keladigan stilistik, madaniy va emotsional muammolarni aniqlash hamda ularni tizimli ravishda tahlil qilishga qaratilgan. Shuningdek, ushbu muammolarni bartaraf etishda sun'iy intellekt va inson tarjimon hamkorligiga asoslangan post-editing, hamda madaniy va stilistik moslashtirish uslublarini samarali yechim sifatida ko'rib chiqadi.

Xulosa o'rnida tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, sun'iy intellekt yordamida badiiy matnlarni tarjima qilishda yuzaga keladigan stilistik, madaniy va emotsional muammolarni aniqlash va bartaraf etish muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur yondashuv sun'iy intellekt va inson tarjimon hamkorligi, (post-editing) hamda madaniy va stilistik moslashtirish strategiyalari orqali tarjimaning tabiiyligi va badiiy bo'yoqdorligini saqlashga imkon beradi. Shu bilan birga, badiiy matn tarjimasida mavjud yondashuvlar

va olimlarning fikrlari bilan solishtirganda, muammo va yechimga yo'naltirilgan tizimli yondashuvning afzalligi aniq ko'rinadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Corston-Oliver, S., Gamon, M., & Brockett, C. (2001). A machine learning approach to the automatic evaluation of machine translation. Proceedings of ACL, 148-155.
2. Li, S., & Li, Y. (2019). A comparative study of literary translation abilities by major online translation tools. Proceedings of ICCSE, 1039-1044.
3. Wang, X. (2020). Adaptability of English literature translation from the perspective of machine learning linguistics. Proceedings of CIPAE.
4. Newmark, P. (1988). A textbook of translation (pp. 39-40). New York, NY: Prentice Hall.
5. Tarjimlarni tahlil qilishda sun`iy intellekt vositasidan foydalanildi.